Jahon kimyo sanoati xabarlari: dunyo aerogel bozori 2029-yilga kelib 1,6 mlrd dollarga yetishi mumkin

// 29.10.2024
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarlari-dunyo-aerogel-bozori-2029-yilg

MarketsandMarkets nashri xabar berishicha, 2029-yilda aerogel bozorining yillik o‘sish sur’ati (CAGR) 1,6 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Bunga texnologik innovatsiyalar va energiyasamaradorlikni oshirish yo'lidagi qat’iy choralar sabab bo‘lishi mumkin.

Aerogel issiqlikni mukammal saqlaydi. Bu neft va gaz sanoatida energiya sarfini kamaytirishga yordam beradi va aviatsiya hamda avtomobil ishlab chiqarishda samaradorlikni oshiradi. Aerogel, shuningdek, shovqin izolyatsiyasini yaxshi ta’minlaydi va yuqori haroratga bardosh bera oladi.

Xabarda keltirilishicha, jahon aerogel bozorida hajmi bo‘yicha Osiyo-Tinch okeani mintaqasi ikkinchi o‘rinni qayd etmoqda. Bu bozor, ayniqsa, yangi texnologiyalar faol joriy etilayotgan Xitoyda rivojlangan.

Sanoatlashtirishning jadal o‘sishi, urbanizatsiya va energiya tejovchi texnologiyalarga ehtiyoj ortib borayotgani mintaqada aerogellarga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati